

Navro'zni ulug'lash - insonni ulug'lashdir!

# IJODIY PARVOZ

O'ZBEKISTON  
DAVLAT SAN'AT  
VA MADANIYAT  
INSTITUTINING  
MA'NAVIY-MA'RIFIY,  
ILMIY, IJTIMOIY  
GAZETASI

2026-yil mart № 3 (142) dsmi.uz nashriyot@dsmi.uz t.me/dsmi\_uz

## Navro'zi olam muborak

Assalomu alaykum!

Qadrli ustozlar!

Aziz talaba-yoshlar!

Sizlarni ezgulik, mehr-oqibat va yangilanish ayyomi – Navro'zi olam bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman!

Ushbu bayram yurtimizga fayz-u baraka, xonadonlaringizga tinchlik-osoyishtalik, qalblaringizga cheksiz quvonch va iliqlik olib kelsin.

Yangilanish va yasharish fasli hayotingizda yangi orzu-maqсадlar sari dadil intilish, ezgu niyatlar ro'yobiga yetishish uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qilsin.

Siz azizlarning yurtimiz obodligi, xalqimiz farovonligi yo'lida olib borayotgan fidokorona mehnatingizga ulkan zafarlar, yangi yutuq va muvaffaqiyatlar tilayman.

Navro'z – bu nafaqat tabiat uyg'onishi, balki inson qalbining yangilanishi, ezgulik va bunyodkorlik sari intilish ramzidir. Ushbu muborak kun barchamizni yangi g'oyalar sari ruhlantirib, yuksak marralarni zabt etishga undaydi.

Shunday ekan, biz – institut jamoasi oldimizga Yangi O'zbekiston san'ati va madaniyatini yanada rivojlantirish, uning nufuzini yuksaltirishdek ulkan va mas'uliyatli vazifalarni qo'ymoqdamiz. Bu yo'lida har birimizdan tashabbuskorlik, fidoyilik va yuksak mas'uliyat talab etiladi.

Zeroki, bugun Davlatimiz Rahbari tomonidan san'at va madaniyat sohasiga qaratilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik biz uchun keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Bu esa o'z oldimizga ulkan maqsadlarni qo'yish va ularni amaliy natijalar bilan mustahkamlash uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda institutimizda amalga oshirayotgan keng qamrovli islohotlar, ta'lim sifatini oshirish, ijodiy muhitni yanada boyitish hamda xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlar ana shu yuksak e'tiborning yorqin ifodasidir.

Albatta, bunday e'tirof va ishonchga munosib bo'lish – siz-u bizning eng ustuvor vazifamizdir. Buning uchun birlashgan holda, yanada katta mas'uliyat va g'ayrat bilan faoliyat olib borishimiz lozim.

Yana bir bor barchangizni Navro'z ayyomi bilan samimiy tabriklayman! Sizlarga mustahkam sog'lik, xonadonlaringizga fayz-u baraka, ishlarinigizga ulkan zafarlar tilayman!

Navro'zi olam muborak bo'lsin!

Ehtirom ila,

**Nodirbek SAYFULLAYEV,**  
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat  
instituti rektori,  
professor



## NAVRO'Z – EZGULIK, BIRLIK VA YANGI UMIDLAR FASLI

Navro'z – insoniyat tarixidagi eng qadimiy va eng ulug' bayramlardan biri hisoblanadi. Bu bayram ming yillar davomida Sharq xalqlarining hayoti, madaniyati va an'alarida muhim o'rin egallab kelgan.

Navro'z tabiatning uyg'onishi, hayotning yangilanishi, inson qalbida ezgulik va mehr-oqibat tuyg'ularining kuchayishini ifodalovchi muqaddas bayramdir. Har yili 21-mart kuni nishonlanadigan Navro'z nafaqat O'zbekiston xalqi, balki butun Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va boshqa ko'plab mamlakatlarda keng nishonlanadi. Bu kun bahorning ilk kuni, yangi yilning boshlanishi sifatida qadrlanadi.

Navro'z so'zi fors tilidan olingan bo'lib, "yangi kun" degan ma'noni anglatadi. Bu nomning o'ziyoq bayramning mazmunini ochib beradi. Aynan shu kunda tabiat yangilanadi, yer yuzida yangi hayot boshlanadi. Qishning sovuq va uzun kunlari ortda qolib, bahorning iliq nafasi sezila boshlaydi. Daraxtlar kurtak chiqaradi, yer yuzida yashillik paydo bo'ladi, gullar ochiladi, tabiat uyg'onadi. Tabiatdagi ana shu o'zgarishlar inson qalbiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib, unda quvonch, umid va ezgulik tuyg'ularini uyg'otadi. Bu esa tabiatga bo'lgan hurmat va ehtiromni ifodalaydi. Zero, tabiatni asrash, kelajak avlod uchun sog'lom va go'zal muhit yaratish demakdir.

Davomi 2-betda

21-mart – xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni  
Abdulla ORIPOV tavallud topgan kun

## NAVRO'Z

Yashadim qish faslin uzun tunida,  
Ko'rdim yorug'likni tun yakunida.  
Jonim, Sen ham endi tarahhum ayla,  
Sen ham tabassum qil Navro'z kunida.



Bugungi sonda:

Zulfiya she'riyatida

ESTETIK  
TUYG'ULAR  
VA TABIAT  
OBRAZLARINING  
POETIK TALQINI



MILLIY  
UYG'ONISH  
YO'LIDA:  
MAHMUDXO'JA  
BEHBUDIY  
SIYMOSSI



"SHOVQIN  
ICHIDAGI  
SUKUNAT"

(Xoliq Xursandov  
dramaturgiyasi darveshona ijod  
va hayot haqiqatlari yo'g'rilgan  
ijodiy suhbat)



RAQAMLI  
DAVRDA  
QADRIYATLAR  
O'ZGARISHI



Sukunat  
ortidagi  
jasorat





# NAVRO'Z – EZGULIK, BIRLIK VA YANGI UMIDLAR FASLI

◀ Boshlanishi 1- betda

Navro'z bayrami xalqimizning ko'p asrlilik urf-odatlarini, an'analari va qadriyatlarini o'zida mujassam etgan. Bu bayram nafaqat tabiatning yangilanishi, balki insonlarning bir-biriga mehr-oqibat ko'rsatishi, bir-birlariga o'zaro hurmat va ehtiromni kuchaytirishi bilan ham muhimdir. Navro'z arafasida odamlar o'z uylarini, hovllarini tozalaydi, atrof-muhitni obodonlashtiradi. Daraxtlar oqlanadi, yangi nihollar ekiladi. Bu ishlarining barchasi yangi yilni pok niyat va toza muhitda kutib olish ramzi hisoblanadi. Bayramining yana bir muhim jihati shundaki, bu kunlarda odamlar bir-birlarini yo'qlaydi, yaqinlari va qarindoshlari bilan uchrashadi. Keksa insonlarning holidan xabar olinadi, ularga hurmat ko'rsatiladi. Bu esa jamiyatda mehr-oqibat, insonparvarlik va birdamlik tuyg'ularini yanada mustahkamlaydi. Ayniqsa, yoshlar uchun Navro'z bayrami milliy qadriyatlarini o'rganish, ajdodlardan meros bo'lib kelayotgan urf-odatlarini davom ettirish uchun muhim imkoniyatdir.

Navro'z bayramining eng mashhur an'alaridan biri esa sumalak tayyorlashdir. Sumalak bug'doy nihollaridan tayyorlanadigan milliy taom bo'lib, u baraka, mo'l-kollik va farovonlik ramzi hisoblanadi. Sumalak tayyorlash jarayoni odatda jamoaviy tarzda amalga oshiriladi. Ayollar birgalikda qozon atrofida yig'ilib, kechasi

bilan sumalak pishiradilar. Bu jarayon davomida qo'shiqlar aytiladi, hazil-mutoyibalar qilinadi, turli tilaklar bildiriladi. Shu sababli sumalak tayyorlash nafaqat taom tayyorlash, balki insonlarni birlashtiradigan, ularni yanada yaqinlashtiradigan marosim hisoblanadi. Bundan tashqari ushbu bayramda yana ko'plab milliy taomlar ham tayyorlanadi. Halim, ko'k somsa, turli bahoriy taomlar dasturxonni bezaydi. Odamlar mehmon kutadi, bir-birlariga bayramona taomlar ulashadi. Bu esa xalqimizning mehmondo'stlik va saxovat kabi qadriyatlarini yana bir bor namoyon etadi.

Navro'z bayramida turli xil xalq sayillari, konsertlar va milliy o'yinlar ham tashkil etiladi. Kurash, arqon tortish, uloq-ko'pkari kabi milliy sport turlari o'tkaziladi. Milliy qo'shiqlar yangraydi, raqslar ijro etiladi. Yoshlar va kattalar birgalikda bayram shodiyonalarida ishtirok etib, bahorning go'zalligidan bahramand bo'ladilar. Bunday tadbirlar xalqimizning boy madaniy merosini asrab-avaylash va uni kelajak avlodga yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, bayram yanada keng va tantanali tarzda nishonlanib kelinmoqda. Navro'z bayrami xalqimizning milliy o'zligini, tarixiy merosini va qadriyatlarini namoyon etuvchi muhim sana sifatida e'tirof etilmog'unda. Navro'z bugungi kunda nafaqat milliy bayram, balki do'stlik va hamjihatlik timsoliga ay-

langan. Shu sababli 2009-yilda YUNESCO tomonidan nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. 2010-yil 23-fevralda esa BMTning Bosh Assambleyasi Navro'zni "Xalqaro Navro'z" kuni deb e'lon qilgan. Bu kundan boshlab, yanada tantanali tarzda o'tkazilib kelinadi. O'zbekiston ko'p millatli davlat bo'lgani sababli, bu bayramni turli millat va elat vakillari birgalikda nishonlaydilar. Bu esa mamlakatimizda tinchlik, totuvlik va bag'rikenglik hukm surayotganining yorqin ifodasidir. Navro'z bayrami insonlarni yaxshilikka undaydi. Bu kunlarda saxovat ishlari ko'payadi, muhtoj insonlarga yordam ko'rsatiladi. Odamlar yetim-yesirlar, qariyalar va yordamga muhtoj kishilarni yo'qlab, ularga mehr va e'tibor ko'rsatadilar. Bunday ezgu ishlar jamiyatda insonparvarlik va mehr-oqibat tuyg'ularini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Navro'z – bu shunchaki fasllar almashinuvi bilan bog'liq oddiy bayram emas, balki xalqimizning asrlar davomida shakllangan boy tarixiy merosi, milliy qadriyatlarini va ezgulik g'oyalarini o'zida mujassam etgan ulug' ayyomdir. Bu bayram tabiatning yangilanishi bilan birga inson qalbining ham poklanishini, odamlar o'rtasida mehr-oqibat, hamjihatlik va do'stlik tuyg'ularining mustahkamlanishini ifodalaydi. Ayniqsa, yosh avlod uchun Navro'z milliy qadriyatlarimizni o'rganish, ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan an'analarni davom et-



**ZARINA NURULLAYEVA**  
"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish" ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

tirish uchun katta ahamiyatga ega. Shu bois, Navro'z bayrami har bir inson qalbida quvonch, umid va kelajakka bo'lgan ishonch uyg'otadi. U bizni tabiatni asrashga, yaxshilik qilishga va doimo ezgu niyatlar bilan yashashga undaydi. Demak, Navro'z – bu yangi hayot, yangi orzular va yangi imkoniyatlar boshlanishining ramzi bo'lib, u xalqimiz qalbida abadiy yashab qoladigan eng qadimiy va eng ardoqli bayramlardan biridir.



**Taniqli va iqtidorli o'zbek shoirasi Zulfiya Isroilova ijodining poetik olamida tabiat manzaralari va estetik his-tuyg'ularining badiiy ifodasi chuqur tahlil qilinadi. Yorqin rassom, oddiy inson qalbini o'tkir his qilgan mehnatkash, Sharq ayolining jamiyatdagi teng huquqi uchun mardonavor kurashgan ayol. Zulfiya she'riyatining nufuzi bizning dabdabali murakkab davrimizning haqqoniy ifodasi, o'ziga xosligi, zamondoshlarimizning qalbi va harakatlarining yorqin tasviridir.**

Zulfiya o'z she'riyatida tabiatni shunchaki tashqi manzara sifatida emas, balki inson qalbi, ayol ruhiyati va ma'naviy dunyoning ajralmas bir qismi sifatida talqin etadi. Shoiraning badiiy tafakkurida tabiat obrazlari inson hissiyotining ramziga, ruhiy kechinmalarining ifodasiga aylanadi. Zulfiya poetikasi o'zbek ayol lirikasida yangi bosqichni boshlab bergan, inson va tabiat o'rtasidagi estetik uyg'unlikni badiiy darajada yuksak talqin qilgan ijod namunalardan biridir. Zulfiya she'riyati orqali o'zbek ayolining estetik dunyoqarashi, ruhiy go'zallikka bo'lgan intilishi va tabiat bilan ma'naviy aloqasi yoritiladi.

O'zbek xalqining atoqli va ardoqli vakili, taniqli jamoat arbobi, xalqaro tinchlik uchun kurash jarchisi Zulfiya Isroilova xalqaro "Nilufar", Javaharlal Neru hamda davlat mukofotlari sohibasidir. Shoirani ijodi haqida so'z borar ekan, beixtiyor xayolimizga bahor, qiyg'os gullagan daraxtlar ko'z oldimizga keladi. Shoirani bolaligidan olamga hayrat

ko'zi bilan boqib, uning boshqalar ko'ra olmaydigan jihatlarni ilg'aganligi bilan ajralib turardi. Buning ustiga, oilasidagi muhit ham yosh Zulfiyada badiiy ijodga ishtiyoqni alangalatardi. Shoirani barcha ayollarga, barcha onalarga xos, munosib she'riyati aslo eskirmaydi. Uning asarlarida halol inson tuyg'ularining porloq yulduzi charaqlab turadi. Xalq orasida "Oydinda", "Sensiz", "Yurak", "Falak", "Bahor keldi seni so'roqlab", "O'g'irlamang qalamim bir kun", "Bo'm-bo'sh qolibdi bir varaq qog'oz", "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush", "Mushoira" kabi she'rlari mashhur. "Uni Farhod der edilar", "Quyoshli qalam", "Xotiram siniqlari" kabi lirik va liro-epik dostonlar muallifidir.

Zulfiya she'riyatining badiiy olamini chuqurroq kuzatar ekanmiz, unda tabiat tasvirlari oddiy manzara sifatida emas, balki inson qalbining ichki kechinmalari bilan uzviy bog'langan holda ifodalanishini ko'ramiz. Shoirani uchun tabiat inson ruhiyatining aks-sadosi, qalbdagi quvonch,

iztirob, sog'inch va umidlarning badiiy ramzidir. Ayniqsa, bahor, gul, shamol, quyosh singari obrazlar orqali u insoniy tuyg'ularni nozik va ta'sirchan shaklda ifoda etadi. Masalan, shoirani mashhur "Bahor keldi seni so'roqlab" she'rida tabiat uyg'unishi bilan inson qalbidagi sog'inch tuyg'ularini uyg'unlashtiradi. She'rida bahorning kelishi oddiy fasl almashinuvi emas, balki qalbdagi umid va intiqlikning jonlanishidir:

**Bahor keldi seni so'roqlab,  
Salqin shamol yuzim silaydi...**

Ushbu satrlarda bahor obrazining jonlantirilishi shoirani poetikasiga xos badiiy usullardan biridir. Bahor go'yo tirik mavjudot kabi "so'roqlaydi", shamol esa insonni erkalab silaydi. Bu esa tabiat bilan inson o'rtasidagi ruhiy yaqinlikni yanada chuqurlashtiradi.

Zulfiya lirikasining yana bir muhim jihati ayol qalbi, sadoqat va muhabbat tuyg'ularining samimiy ifodasidir. Ayniqsa, "Sensiz" she'rida shoirani inson qalbidagi iztirob va sadoqatni nihoyatda ta'sirchan badiiy obrazlar orqali ifoda etadi. She'rida yo'qotish va sog'inch tuyg'usi shunchaki shaxsiy kechinma sifatida emas, balki insoniy muhabbatning yuksak namunasi sifatida talqin etiladi.

**Sensiz hayot go'yo bir sokin sahro,  
Sensiz quvonchlar ham yetimday go'yo.**

Bu satrlarda metaforik tasvir vositasida ayriqliq hissi kuchaytirilgan. "Sokin sahro" obrazi inson qalbidagi bo'shliqni ifodalovchi poetik ramz sifatida xizmat qiladi. Shoirani ayriqlik kechinmalarini umumlashtirilgan badiiy obraz orqali ifodalab, she'rga chuqur psixologik mazmun beradi.

Shoiraning "Yurak" she'rida esa inson qalbining ruhiy holati falsafiy mushohada orqali ifodalanadi:

**Yurak, sensan mening eng yaqin do'stim,  
Sen bilan quvonch ham, g'am ham bo'lishdim.**

Bu satrlarda "yurak" obrazi metaforik ma'noda ishlatilgan bo'lib, insonning ichki dunyosi va ruhiy olamini ifodalaydi. Shoirani yurak obrazini poetik markazga aylantirib, insoniy tuyg'ularning murakkabligini badiiy jihatdan ochib beradi.

Shoiraning "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush" she'rida esa tinchlik g'oyasi, onalik tuyg'usi va insonparvarlik falsafasi yuksak badiiy darajada ifoda etilgan.



# Zulfiya she'riyatida

## ESTETIK TUYG'ULAR VA TABIAT OBRAZLARINING POETIK TALQINI

◀ Boshlanishi 2- betda

**O'g'lim, sira bo'lmaydi urush,  
Yer yuzida yashasin quvonch.**

Bu satrlarda shoiraning insonparvarlik pozitsiyasi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ona qalbidagi iztirob orqali urushning dahshati ochib beriladi. Shoir urushga qarshi insoniylik, mehr va hayotni ulug'lash g'oyalarini ilgari suradi. Bu jihat Zulfiya ijodining faqat lirik emas, balki chuqur ijtimoiy va ma'naviy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, Zulfiya poetikasi o'zbek ayol lirikasining rivojida muhim bosqich hisoblanadi. Shoir ayol ruhiyatini, uning orzu-intilishlari va ma'naviy go'zalligini yangi badiiy shakllar orqali tasvirlab berdi. Uning she'rlarida ayol obrazining kuchli, matonatli va ma'naviy barkamol

qiyofasi gavdalanadi. Shuningdek, Zulfiya ijodida badiiy tilning musiqiyliigi, obrazlarning nafisligi va tasvirlarning jonliligi alohida ahamiyat kasb etadi. Shoir so'zning ichki ohangini, uning ruhiy ta'sir kuchini juda nozik his qilgan. Shu sababli uning she'rlari o'qilganda nafaqat mazmuni, balki ohangdorligi ham o'quvchini o'ziga rom etadi.

Zulfiya Isroilova o'zbek adabiyoti tarixida ayol lirikasini yangi badiiy darajaga ko'targan ulkan ijodkorlardan biridir. Uning she'riyatida tabiat va inson qalbi o'rtasidagi uyg'unlik, muhabbat va sadoqat, tinchlik va insonparvarlik g'oyalari yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etilgan. Shoir ijodi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, u o'zbek adabiyotining bebaho ma'naviy merosi sifatida qadrlanadi. Xulosa qilib aytganda, Zulfiya Isroilova o'zbek adabiyotida ayoli lirikasini yangi badiiy darajaga olib chiqqan ijodkorlardan



**OZODA NURPO'LATOVA**  
"Madaniyat va san'at sohosi  
menejmenti" mutaxassisligi  
(rus guruhi) 1-bosqich magistranti

biridir. Zulfiya she'riyati o'zining badiiy nafisligi, ruhiy samimiyligi va estetik yuksakligi bilan o'zbek adabiyotining bebaho merosi hisoblanadi. Shoiraning asarlari bugungi kunda ham o'quvchilar qalbidagi chuqur taassurot qoldirib, ma'naviy tarbiya va estetik didni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

# Usmon Azimning "Turmush suratlari" she'ri haqida

O'zbek adabiyotining eng taniqli, xalq orasida sevimli dramaturgi Usmon Azim har bir asari, she'rlari orqali insonni ongi va tafakkuriga ta'sir qiladigan satrlari, o'quvchini o'ylantiradigan darajada badiiy yondashadi. Ijodkor inson qalbining eng nozik qirralarini tasvirlash, hayotning oddiy yondashivida falsafiy ma'no berishi hamda qarashlarini samimiyligi bilan ajralib turadi.

Usmon Azim ijodida hayotga muhabbat, vatanga bo'lgan munosabat, falsafiy mushohada bilan ifodalaydi. Uning she'rlarida ruhiy iztirob, hayotning o'tkinchiligi kabi mavzudagi g'oyalar ilgari suriladi.

"Turmush suratlari" nomli she'rida eng yorqin, betakror inson ruhiyati, turmushning achchiq manzarasi, hayot mazmuni va chuqur falsafa tasvirlanadi. Aynan ushbu she'r hayotga mehr-muhabbat his-tuyg'usi bilan boqishga undaydi:

**Qabristonda mitti qabrlar  
Mitti marhumlar yotar ularda,  
Ularni kattalar o'ldirganlar,  
Go'daklarni aldaganlar.  
Shirin-sharbat mevalarga  
Zahar zavqum qo'shib...**

Bu satrlar kuchli ma'no yuklangan, fojea, adolatsizlik, begunohlikning ezilishi haqida gapiradi.

"Kattalar o'ldirgan" mazkur satrlar orqali bolalarning baxtini, kelajagini o'ldirayotgan kattalar nazarda tutilgan.

"Kattalar" so'zida dramaturg – urush boshlovchilari, jamiyat adolatsizliklari, bemehr ota-onalar, tarbiya bera olmayotgan insonlar yoki jamiyatdagi yomon odatlarni davom ettiruvchilar haqida so'z boradi.

Jamiyatda har bir inson o'z vazifasini to'g'ri va sidiqildan bajarmasligi bilan muvozanat buzilib boradi. Insoniyat dunyo taqdirini faqat shaxslar hal qiladi. Agar u shaxs kuchli bo'lsa bironing ta'sirida o'z garmaydi.

Adib quyidagi satrlarda:

**Kattalar qo'rqmaydilar, chunki mitti  
suyakchalar yotar...**  
**Mitti jigarlarni esa, yeb bitirgan ochofat  
qurtlar.**

Ularning o'limiga urush, zo'ravonlik, johillik, beparvolik sabab va bularning barchasiga kattalar aybdor, degan ma'no beradi.

Adib ushbu she'rida begunohlikning yozilishi va kattalarning mas'uliyatsizligi haqida fikr yuritadi.

**NARGIZA BOYMUROVA,**  
"Sahna va ekran san'ati  
dramaturgiyasi" (sirtqi) ta'lim  
yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Usmon Azim zamonaviy o'zbek adabiyotining eng yorqin, o'z davrida qalami o'tkir dramaturglaridan biridir. U kishining asarlari inson qalbining tasvirlaydi. Hayotning oddiy qarashlariga falsafiy ma'no beradi. Tuyg'ularni samimiy ifodalaydi va har bir asarlarida o'quvchini o'ylantirib qo'yadi. Jamiyatdagi illatlarni yumor orqali tasvirlashi orqali o'quvchiga maroq bag'ishlaydi.

Usmon Azim xalqona, sodda lekin chuqur ma'noli tilning ustasi. Adib ijodi she'riyatda, dramada bebaho bo'lib, uning she'rlari bugungi yoshlar uchun ham, kattalar uchun ham ma'naviy boylik vazifasini bajaradi. Shu o'rinda adabiyotshunos No'mon Raximjonovning quyidagi so'zlarini eslash o'rindir.

"Ijod sirli, sehrlil jarayon, umuman badiiy asar uch narsaning mahsuli ekan:

- birinchisi: talant,
- ikkinchisi: mehnat,
- uchinchisi: omad".

Serqirra ijodkor Usmon Azim ustozga yuqorida ta'kidlangan uchlik kesishmasining hamisha markazida bo'lishini tilab qolamiz. Qalami o'tkir Usmon Azim ustoz biz sizning so'zingizdan, ijodingizdan jon topgan shogirdlaringiz. Siz aytgan nurlil so'zlaringizdan bizning qalbimiz hamisha porlaydi, siz yaratgan badiiy olam bizga yo'l, ibrat hamda saboqdir. Sizga cheksiz va barakali ijod, sog'lik-salomatlik, uzoq umr tilaymiz.

Yaratgan har bir asaringiz orqali xalqimizni ruhlantirib, ilhomingiz bardavom bo'lsin. Zero, sizning so'zlaringiz barcha yosh shogirdlaringizga nurlil yo'l bo'lib qolsin!

O'zbek she'riyati xazinasida shunday asarlar borki, aslo unutilmaydi, aksincha, inson qalbidagi savollar uyg'otib, uzoq vaqtgacha o'ylatib qoldiradi. Muhammad Yusuf qalamiga mansub "Ajab dunyo" she'ri ana shunday teran mazmunli, dard va iztirob bilan yo'g'rilgan asarlardan biridir. Ushbu she'rda shoir faqatgina tarixni eslatish emas, balki millatning ichki og'riqlarini, kechikkan anglash va armon hissini ham badiiy tarzda ochib beradi.



**ROZIYA RAVSHONBEKOVA,**  
"San'at jurnalistikasi" ta'lim  
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

# "Ajab dunyo"

She'r markazida ikki buyuk siymo – Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur turadi. Ular nafaqat o'z davrining, balki butun turkiy dunyoning faxri, ma'naviy ustunlari hisoblanadi. Biroq shoir e'tiborini tortgan jihat ularning buyukligi emas, qismatidagi achchiq haqiqatdir: biri Hirotda, biri Qobulda o'z yurtidan yiroqda umr kechirgan.

She'r davomida takrorlanib keladigan "Navoiy Hirotda, Qobulda Bobur" misrasi asarning yuragi, asosiy g'oyaviy tayanchidir. Bu satr har gal takrorlanganda oddiy ma'lumot emas, balki ichki hayqiriq, dardli eslatma sifatida yangraydi. Muhammad Yusuf mazkur she'r orqali o'quvchini befarq qoldirmaydi, aksincha, uni o'tmishga yuz tutishga, tarixdan saboq olishga majbur etadi.

Asarda qo'llangan "qitmir qismat o'yini" iborasi esa alohida e'tiborga loyiq. Bu yerda shoir taqdirni shunchaki holat sifatida emas, balki go'yo insoniyatning o'z qo'li bilan yaratilgan sinovi sifatida tasvirlaydi. Bu ibora ortida achchiq haqiqat yashiringan, ya'ni buyuklarni yo'qotish bu faqat taqdir emasligi insoniy beparvolik natijasidir. "Daholarimiz qadriga yetmadik" degan satrlar o'quvchini bevosita vijdon bilan yuzlashtiradi.

She'rning badiiy tasvirlari ham nihoyatda kuchli. Afg'on zaminidagi alangali manzara, kulrang bulutlar, yonayotgan yer tasvirlari orqali muallif nafaqat makonni, balki iztirobli tarixni ham gavdalandiradi. Bu tasvirlar fonida buyuk ajdodlarning taqdiri yanada fojealiroq tus oladi. Go'yo tabiatning o'zi ham bu ayriqliq va armonni aks ettirayotgandek.

Asarning yakuni esa o'quvchini larzaga soladigan darajada chuqur ma'noga ega. Hayotda uchrashmagan ikki buyuk insonning oxir-oqibat yonma-yon qo'yilishi bu oddiy hol emas, balki hayotning achchiq kinoyasi, kechikkan qadrlashning ramzidir. Zero, shoirning ushbu she'ri "Ajab dunyo" degan sarlavhasini to'liq oqlaydi. Darhaqiqat, bu dunyo g'alati va ba'zan tushunarsiz qonunlar asosida yashaydi.

Muhammad Yusuf ushbu she'ri orqali bizni o'ylashga undaydi, bugun-chi? Biz iste'dod egalarini qadrlayapmizmi? Yoki yana tarix takrorlanish arafasidami?

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, "Ajab dunyo" – bu shunchaki she'r emas, balki milliy o'zlikni anglashga chaqiruvchi kuchli badiiy hayqiriqdir. U har bir o'quvchidan bitta narsani talab qiladi: befarq bo'lmaslikni. Chunki, buyuklarni vaqtida qadrlash – bu nafaqat o'tmishga hurmat, balki kelajakka mas'uliyat hamdir.

## MILLIY UYG'ONISH YO'LIDA:

# Mahmudxo'ja BEHBUDIY siymosi



Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919) – Turkiston jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri, millatning buyuk murabbiysi, ma'rifatparvar va o'zbek dramaturgiyasining asoschilaridan biri sanaladi. 2025-yil Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligi munosabati bilan mamlakatimizda keng ko'lamli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi. Bu e'tibor nafaqat tarixiy xotiraga hurmat, balki yosh avlod qalbida milliy g'urur va ongni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yil 20-yanvarda Samarqand shahrida, ilmiy va dindor oilada tug'ilgan. Dastlabki bilimlarni otasi qo'lida olgan Behbudiy yoshligidanoq ilmga chanqoqligi va zehni bilan ajralib turgan. Ba'zi manbalarda uning nasabi buyuk mutafakkir Ahmad Yassaviyga borib taqalishi qayd etiladi. U diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlarni, xorijiy tillarni, tarix va siyosatni chuqur o'rgandi. Behbudiy qisqa fursatda zamonasining yetuk ziyolilaridan biriga aylandi. U mudarrislik faoliyati bilan shug'ullangan, diniy-ilmiy masalalarda keng bilimga ega bo'lgan. Biroq Behbudiy faqatgina diniy doira bilan cheklanib qolmadi, balki xalqni uyg'otish yo'lida zamonaviy bilim va tafakkurni targ'ib qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Mahmudxo'ja Behbudiy jahonning ko'plab mamlakatlarida bo'lib, o'z dunyoqarashini yanada boyitdi. Uning Makka va Madinaga qilgan safari ziyorat bilan birga, Istanbul, Qohira, Quddus, Odessa va Peterburg

shaharlariga tashriflari Yevropa va musulmon dunyosidagi ta'lim, matbuot hamda jamiyat taraqqiyotini o'rganishga qaratilgan edi. Bu safarlar Behbudiyning islohotchi sifatida shakllanishida muhim o'rin tutdi.

Behbudiy xalqni jaholatdan qutqarishning eng samarali yo'li ta'lim va matbuot ekanini chuqur anglagan. U 1903-yil Samarqandda o'z uyida "Behbudiy kutubxonasi"ni tashkil etdi. Shuningdek, Behbudiy "Samarqand" gazetasi va "Oyna" jurnalini nashr etib, matbuotni milliy uyg'onishning qudratli vositasiga aylantirdi.

Mahmudxo'ja Behbudiy Turkistonda "usuli jadid" maktablarini yoyishda faol qatnashdi. U Ismoil Gasprinskiyning ilg'or g'oyalari qo'llab-quvvatlab, yangi ta'lim tizimini joriy etishga harakat qildi. Behbudiy bir qancha darslik va qo'llanmalar muallifi bo'lib, jumladan, "Muntaxabi jug'rofiyay umumiy" asari orqali yosh avlodga zamonaviy bilimlar berishni maqsad qilgan.

VALIJON ABDURAHIMOV,  
"San'at jurnalistikasi"  
ta'lim yo'nalishi  
2-bosqich talabasi

Behbudiy tavalludining 150 yilligi munosabati bilan uning xotirasini abadiylashtirish yo'lida muhim ishlar amalga oshirildi. Xususan, Samarqand viloyati Toyloq tumanida "Behbudiy bog'i" barpo etildi. Bu bog' oddiy dam olish maskani emas, balki ma'naviy-ma'rifiy markazga aylandi. Bog' hududida Behbudiyning hayoti va faoliyatiga oid installatsiyalar, jadid bobolarimizning hikmatli so'zlari bitilgan lavhalar o'rnatilgan bo'lib, bu yerda yoshlar uchun ma'rifiy tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeyi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 13-apreldagi 206-sonli qaroriga asosan tashkil etilgan. Muzeyning ochilish marosimi 2021-yil 18-oktyabrda Samarqand shahri kuni munosabati bilan o'tkazilgan. So'nggi yillarda Behbudiy merosini o'rganish va targ'ib etish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Uy-muzey mashhur ma'rifatparvar, dramaturg, jurnalist va noshir bo'lgan Behbudiyning ijodiy faoliyatini ilmiy asosda o'rganish va keng jamoatchilikka yetkazishda muhim ilmiy-ma'rifiy maskan hisoblanadi.

Muzeyda adibning shaxsiy buyumlari, noyob qo'lyozmalari, u nashr etgan gazeta va jurnallarning asl nusxalari saqlanmoqda. Bu yerga tashrif buyurgan har bir kishi XIX asr oxiri va XX asr boshidagi jadidchilik muhitini chuqur his etadi. Siyosiy faoliyati va jasorati 1917-yilgi tarixiy voqealar jarayonida Mahmudxo'ja Behbudiy o'zini xalq manfaatlarini himoya qilgan fidoyi yetakchi sifatida namoyon etdi. U Qo'qonda e'lon qilingan Turkiston Muxtoriyati g'oyalari qo'llab-quvvatlagan va uning faol ishtirokchilaridan biri bo'lgan. Behbudiyning "Haq olinur, berilmas!" degan shiori bugungi kunda ham milliy ozodlik va adolat ramzi sifatida jaranglaydi.

1918-yilda ocharchilik avj olgan paytda u sho'ro hukumatidan xalqning oziq-ovqat muammosini hal etishni qat'iy talab qilgan jasoratli siymo edi. Mahmudxo'ja Behbudiy 1919-yilda fojiali tarzda hayotdan ko'z yumgan bo'lsa-da, uning 44 yillik umr yo'li o'zbek xalqining keyingi asrlardagi ma'naviy va ijtimoiy taraqqiyotiga mustahkam poydevor bo'ldi. Bugun uning nomi bilan atalgan ko'chalar, maktablar, Toyloqdagi so'lim bog' va Samarqanddagi uy-muzey – millat ozodligi va ma'rifati yo'lida jon fido qilgan buyuk siymoga bo'lgan cheksiz hurmatimiz ifodasidir.

## DETEKTIV OLAM SULTONI KOMIL SINDAROV IJODIGA NAZAR

Bugungi shiddatli axborot asrida kitobxon ko'nglidan joy olish, ayniqsa, detektiv janrida o'quvchini hayajonda ushlab turish har qanday ijodkordan katta mahorat talab etadi. Bu borada, o'zining hayotiy tajribasini badiiy so'z bilan uyg'unlashtira olgan, huquqshunos olim va yozuvchi Komil Sindarovning o'rni beqiyosdir.



1960-yil Samarqandning so'lim Qo'sh-rabon tumanida dunyoga kelgan qahramonimizning hayot yo'li adolat va qonun ustuvorligiga baxshida etilgan. Samarqand davlat universitetida kafedra o'qituvchiligidan boshlangan faoliyat prokuratura tizimi, sudyalik va bugungi kunda Sudyalari oliy maktabi direktori o'rinbosari kabi yuksak mas'uliyatli lavozimlarni qamrab olgan. Lekin Komil Sindarov shunchaki huquqshunos emas. U – jamiyatdagi jinoyat va jazo, adolat va xiyonat o'rtasidagi nozik chiziqlarni ruhan his qila oladigan san'atkor.

Yozuvchining asarlarini boshqa detektivlardan ajratib turadigan asosiy jihat bu hayotiylik. Gazetadagi taqrizlarda ta'kidlanganidek, muallif o'z qahramonlari, xususan, tergovchi Sanjar Rahmonov timsolida nafaqat tergov jarayonini, balki inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini ochib beradi. Komil Sindarov asarlarida

tergovchi obrazlari nafaqat kasbiy mahorati, balki insoniy fazilatlari bilan ham ajralib turadi. Uing "Qimmatga tushgan xato", "Temuriylar kutubxonasining siri" "Tazarru", "Dorixonadagi qotillik" kabi asarlari o'quvchini shunchaki sarguzashtga yetaklamaydi. Ular orqali tariximiz, madaniy merosimiz va eng muhimi jinoyatning ildizi bo'lgan tarbiyaviy bo'shliqlarni tahlil qiladi.

Yozuvchi ijodida jinoyat shunchaki voqea emas, balki "og'riqli nuqta" sifatida ko'riladi. "Qadr kechasidagi qotillik" asarida jinoyatning sabablari sifatida oilaviy munosabatlardagi uzilishlar va e'tiborsizlik ko'rsatiladi. Bu esa kitobxonni hushyorlikka chorlaydi. Komil Sindarovning serqirra ijodi va sarmazmun hayot yo'li yosh huquqshunoslar va bo'lajak yozuvchilar uchun haqiqiy mahorat maktabidir. Uning asarlaridagi har bir detektiv chiziq ortida "Adolat baribir g'alaba qozonadi", degan oliyanob g'oya yotadi. Komil Sindarovning ijodiy laboratoriyasi bu shunchaki xayolot mahsuli emas, balki yillar davomida prokuratura va sud tizimida orttirilgan amaliy tajribaning mevasidir. Uning asarlarida tergov jarayoni qog'ozbozlik emas, balki haqiqiy intellektual jang sifatida tasvirlanadi.

Yozuvchi asarlarining muvaffaqiyat siri

MASHHURA OLIMOVA,  
"Kutubxona-axborot faoliyati"  
ta'lim yo'nalishi  
2-bosqich talabasi

quyidagi uchta ustunda namoyon bo'ladi:

- *huquqiy aniqlik – har bir jinoyat fosh etilishi qonun normalari va real ekspertiza usullariga asoslanadi. Bu o'quvchida voqealarga nisbatan yuksak ishonch uyg'otadi;*

- *sixologik tahlil: Sindarov qahramonlari – goh adashgan, goh qalbida qora niyati bor insonlar. Muallif jinoyatning sababini emas, uning ildizini – inson ruhiyatidagi o'zgarishlarni qidiradi;*

- *milliy kolorit: Uning detektivlari o'zbekona muhit, oilaviy qadriyatlar va milliy mentalitet bilan sug'orilgan. "Temuriylar kutubxonasining siri" kabi asarlarida esa tarixiy faktlar zamonaviy qidiruv usullari bilan mahorat bilan bog'langan.*

Komil Sindarov nafaqat yuridik fanlari doktori va tajribali sudya, balki o'zbek detektiv adabiyotini yangi bosqichga olib chiqqan islohotchidir. Uning qalamiga mansub har bir satr jamiyatda adolatsizlikka nisbatan nafrat va qonun ustuvorligiga nisbatan hurmat uyg'otishga xizmat qiladi.

O'zbekiston mustaqilligining turli yilliklari munosabati bilan ko'krak nishonini qo'lga kiritgani ham uning ham sohada, ham ijodda vatan oldidagi xizmatlari yuksak e'tirof etilganidan dalolatdir. Zero, adolat bor joyda taraqqiyot, kitob bor joyda esa ma'naviyat yuksaladi.

# “SHOVQIN ICHIDAGI SUKUNAT”

(Xoliq Xursandov dramaturgiyasi  
darveshona ijod va hayot haqiqatlari  
yo'g'rilgan ijodiy suhbat)



Ba'zan buyuk ijod sukunatning sokin qo'ynida emas, balki hayotning eng tirik, eng shovqinli, eng qaynoq lahzalarida dunyoga keladi. Atrofdagi tovushlar, bolalarning kulgisi, kundalik tashvishlarning mayin shovqini ijodkorni chalg'itmaydi, aksincha, uning qalbini uyg'otadi, ruhini harakatga keltiradi. Qog'ozni titgan nevara, yelkaga chiqib olgan beg'ubor bola, hovliga yoyilib ketgan yozuv mashinkasining jarangi – bular tartibsizlik emas, balki hayotning o'zi, ijodning tirik nafasidir.

Chinakam ijod sukunatdan emas, tuyg'udan tug'iladi. Agar qalb uyg'oq bo'lsa, ilhom uchun alohida sharoit shart emas. Hayotning o'zi bor murakkabligi, shovqini va harorati bilan, ijodkor uchun cheksiz ijod manbai hisoblanadi. Ba'zan eng samimiy, eng ta'sirli satrlar aynan shunday oddiy, ammo sarmazmun lahzalarda bitiladi. Chunki ijod hayotdan qochmaydi. U hayot bilan birga yashaydi, nafas oladi va shu nafasdan kuch oladi.

1945-yil 9-may kuni Surxondaryo viloyati Boysun tumani Katarguzar qishlog'ida tavallud topgan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, taniqli folklorshunos, xonanda va jurnalist, “O'lding aziz bo'lding”, “Kampir topaymi dadajon”, “Muhabbatim qismatim” kabi qator asarlar muallifi, o'zbek dramaturgiyasida o'ziga xos maktab yaratgan Xoliq Xursandov esa, yuqorida ta'kidlaganimizdek hayotning o'zidan o'rganib, xalqning tilida, xalqning dardi va quvonchi bilan yozgan ijodkor edi. Uning qalamida oddiy inson taqdiri yuksak badiiy haqiqat darajasiga ko'tarilar edi.

Xursandov asarlarida sahna bilan hayot o'rtasida deyarli masofa sezilmaydi. Ota-ona burchi, farzand mas'uliyati, ayolning murakkab va nozik taqdiri, jamiyat va axloq masalalari tomoshabinga yot voqelik sifatida emas, balki xuddi o'z xonadonida, o'z ko'z o'ngida kechayotgandek ta'sir qiladi. Uning dialoglarida sun'iylik yo'q, obrazlarida yasamalik sezilmaydi, barchasi tabiiy, jonli va ishonituvchi. Dramaturgning ijodiy olamini teranroq anglash uchun uning oilaviy muhiti, kundalik turmushi, insoniy fazilatlariga nazar tashlash muhim. Chunki u sahnaga ko'chirgan hayot avvalo o'zi yashagan, o'zi his etgan, qalbidan o'tkazgan hayot edi. Ana shu samimiyat va hayotiylik uning asarlarini vaqt sinovidan o'tkazib, tomoshabin qalbiga yaqinlashtirgan asosiy kuchdir.

Quyidagi suhbatda Xoliq Xursandovning farzandi Zafarbek KURSANDOV otasining ijodiy laboratoriyasi, dramaturg sifatidagi qarashlari va insoniy fazilatlarini haqida samimiy xotiralarini o'rtoqlashadi. Har bir voqea va eslatma shunchaki xotira emas, balki bugungi teatr uchun muhim saboqlar va qadriyatlar jamlanmasidir.

## XOLIQ KURSANDOVNING IJOD OLAMIDA FARZAND XOTIRALARI

– **Otangiz oilaviy muhitda qanday ijod qilar edi?**

– Dadam ijodkorlik uchun maxsus sukunat shart deb o'ylamaganlar. Aksincha, nabiralari davrasida, shovqin-suron ichida ishlardilar. Biri qog'ozlarini titib o'ynar, boshqasi yelkalariga chiqib olardi. Shunday paytlarda: “Tegmanglar, bola podsho, nima istasa haqqi bor”, deb bizni ham to'xtatardilar. Shu hayotiy shovqin ichida ham ular ijoddan to'xtamas, aksincha, hayotning o'zi ularga ilhom bo'lib tuyilardi. Yozuv mashinkasining ovozi hovliga taralar, bolalar esa darrov o'sha xonaga yugurib kirishardi. Chunki u xonada hech kim bolalarga tanbeh bermasdi. Ular hayotning tabiiy bir bo'lari, ijod davomchisi sifatida qabul qilinardi. Ayni shu samimiy va tirik muhit sahnaviy tafakkur va dramatik tafsilotlar uchun muhim manba bo'lgan.

– **Xoliq Xursandov dramaturgiya bilan shug'ullanish – mas'uliyatli va sharafli kasb eshigini ocha oldimi?**

– Dadam haqiqatdan ham ko'p qirrali ijodkor edilar. Folklor, qo'shiqchilik, jurnalistika, dramaturgiya va adabiyot – qaysi sohaga qo'l urmasinlar, unga jiddiy va mas'uliyat bilan yondashardilar. Ya'ni ijod shunchaki mashg'ulot emas, hayot mazmuni edi. Hayotlarining so'nggi yillarida kuniga 18-20 soatlab ishlagan paytlari bo'lgan. Ayniqsa, dramaturgiya bilan chuqurroq shug'ullana boshlagan sari ish vaqtlari yanada uzaygan, izlanishlari teranlashgan.

Har bir asar ustida uzoq o'ylanar, obrazlarning ichki dunyosini puxta his etmaguncha qalamga qo'l urmasdilar. Qaysi janrda ijod qilmasinlar, mayda-chuyda detalgacha e'tibor berib, qunt bilan ishlardilar. Ana shu fidoyilik va tinimsiz mehnat tufayli ular san'at olamining yuksak cho'qqilaridan birini zabt eta olganlari shubhasiz.

– **Otangiz xarakteridagi qaysi jihatlari dramaturgiyasida aks etgan?**

– Dadam hayotiy tajribaga boy, bag'rikeng va ko'ngli keng inson edilar. Hatto biror kishi haqida salbiy gap aytilsa ham, darhol: “Unaqa demang, u aslida yaxshi odam”, deb oqlashga urinardilar. Insonni birgina xatosi bilan baholashga qarshi bo'lib, odamning ichki yaxshiligiga ishonar, har kimga imkon berish kerak, deb bilardilar. Ammo dramaturg sifatida hayotni hech qachon bezamaganlar. Sahna uchun yozganda hissiyotga berilib, haqiqatni yumshatmaganlar. “O'lganlar yolg'on gapirmaydilar” kabi asarlarida hayotning achchiq haqiqatlari, insoniy zaifliklar, jamiyatdagi og'riqli muammolar ochiq va dadil tasvirlanadi. Bu yerda ortiqcha pardoz ham, sun'iy tasalli ham yo'q, bor narsa hayotning o'zi.

U kishining ichki qarashlari, hayotni chuqur bilishi va inson tabiatini nozik his etishi asarlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Shaxsiy mehr-oqibat va badiiy haqiqat o'rtasidagi ana shu nozik muvozanat uning dramaturgiyasining kuchini belgilagan. Insonni yaxshi ko'rgan holda ham uning kamchiligini yashirmaslik – bu katta jasorat va yuksak ijodiy halollik edi.

– **Inson taqdiri va jamiyat masalalariga munosabati qanday edi?**

– “Chopon kiygan ayol” romani nashr etilgach, Azizbek avlodlari kelib minnatdorchiilik bildirganlari buning yorqin dalilidir. Ular, “Biz bobomizdan qo'rqib yashardik, “bosmachining avlodlari” deb bizni ham jazolashadi, deb xavotirda edik. Siz esa haqiqatni yozibsiz”, – degan so'zlarni aytishgan. Bu e'tirof asarning nafaqat badiiy, balki tarixiy va ma'naviy ahamiyatini ham ko'rsatadi.

Dadam tarixni chuqur bilgan, manbalarga tayangan holda fikr yurita oladigan inson edilar. Shu bois, asarlarida yaqin o'tmish voqealari jonli, haqqoniy va murakkabligi bilan birga tasvirlanadi. U kishi tarixni qora yoki oq rangda emas, inson taqdiri orqali, davr ruhini his ettirgan holda

ko'rsatishga intilganlar. Natijada o'quvchi nafaqat voqeani biladi, balki o'sha davrning og'rig'ini, qo'rquvini va umidini ham his etadi. Ana shu tarixiy haqiqat va badiiy samimiyat uyg'unligi uning ijodini qadrligi va ta'sirchan qilgan.

– **Qahramonlar hayotdan olinganmi?**

– Ko'pchilik qahramonlar real hayot voqealari va haqiqiy insonlardan ilhomlanib yaratilgan. Ammo ular oddiy ko'chirma yoki tasvir darajasida qolib ketmagan. Badiiy umumlashtirish, chuqur tahlil va dramaturglik ishlov orqali bu obrazlar yanada yuksak badiiy darajaga ko'tarilgan. Natijada ular faqat bir davr yoki bir shaxs timsoli bo'lib qolmay, kengroq ma'noda insoniy xarakter va ijtimoiy muammolarni ifodalovchi ramziy qahramonlarga aylangan.

– **Pyesalarning sahnalashtirilishida qanchalik faol edi? Rejissyor talqini bilan kelisholmagan holatlar bo'lganmi?**

– Dadam deyarli barcha asarlarini rejissyor bilan hamkorlikda sahnalashtirardilar. Mashg'ulotlar jarayonida faol ishtirok etib, har bir sahna, har bir dialog ustida birgalikda ishlardilar. Dadam har qanday fikrni mukammal shaklga keltira oladigan, badiiy yechimni oxirigacha olib boradigan ijodkor edilar. Ayniqsa, Boysun ansambli uchun yozilgan folklor asarlarida bu mahorat yaqqol seziladi. U yerda xalq og'zaki ijodining ruhi, ohangi va tabiiyligi saqlangan holda, sahnaviy yaxlitlik va badiiy mukammallik ta'minlangan. Bu esa ijod jarayoniga mehr qo'ygan, ammo natija uchun ham yuksak talab qo'ya olgan dramaturgning qo'lidan keladigan ish edi.

– **Otangiz uchun eng aziz pyesalar qaysilar edi? Bu asarlar yaratilishiga nima turki bo'lgan?**

– “Muhabbatim qismatim” va “Xotinimning uch oshig'i” dadamning eng yetuk asarlaridan, deb o'ylayman. Chunki o'zbek ayoli obrazini u kishichalik chuqur, nozik va haqqoniy tasvirlagan dramaturglar juda kam uchraydi. Bu asarlarda ayol shunchaki voqealar ishtirokchisi emas, balki ma'naviy markaz, sabr va matonat timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Uning iztirobi ham, muhabbati ham, or-nomusi ham jonli va ishonarli aks etadi.

– **Dadangiz asarlarining bugungi teatr uchun dolzarbligi nimada? Uning asarlari qayta sahnalashtirilsa aynan qaysi jihatlari o'zgaraslik kerak deb o'ylaysiz?**

– Bu asarlar shunchaki sahna asari emas, balki xalqimiz madaniyati, qadriyatlarining jonli ifodasidir. Ular o'z zamonasining muammolarini yoritib bergan bo'lsada, bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan. Avvalo, insoniy qadriyatlar, ichki konfliktlar va ruhiy kechinmalar ahamiyatini yo'qotmaslik kerak. Tilining o'ziga xosligi, obrazlarning ichki haqiqatlari va dramatik tuzilishlari esa o'zgarasligi muhimdir.

– **Ijodiy orzulari qanday edi?**

– Dadam hech qachon mashhurlikka intilmaganlar. “Asarlarim o'z o'rnini o'zi topadi”, – derdilar. Ular uchun ijodning eng katta mukofoti – asarning tomoshabin qalbiga yetishi, hayotiy haqiqatni yetkazishi edi. Ijodkorning orzusi bundan ortiq nima bo'lishi mumkin?

Bugungi kunda ham ularning asarlari sahnalardan tushmagan, tomoshabin bilan uchrashishda davom etmoqda. Bu shunchaki adabiy meros yoki tarixiy hujjat emas, albatta. Bu – otamning nomi, so'zi va ruhi hali ham tirik ekanining yaqqol isboti. Ana shu ruhiy meros teatr uchun, insonlar uchun foyda keltira olmoqda, ularga hayotiy saboq va ta'sir bag'ishlamoqda. Shu bilan ularning ijodi hamon jonli va ahamiyatli ekanini his qilamiz.

– **Siz uchun Xoliq Xursandov qanday ramz? Hayotiy shiori bo'lganmi?**

Dadamning taxallusi Darvesh edi. “Eng oddiy narsa – eng mukammal narsa” – degan so'z ularning hayot va ijoddagi shiori bo'lgan. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Xoliq Xursandov inson ruhiyatini chuqur tahlil qilgan halol va samimiy dramaturg, serqirra va ko'p qirrali ijodkor sifatida yodda qoladi.

Xoliq Xursandov ijodi – sahna uchun yozilgan asarlar to'plami emas, balki xalq xotirasiga bitilgan, ma'naviy merosdir. Uning qahramonlari o'zbekning kechagi kunini, bugungi og'rig'i va ertangi umidini o'zida mujassam etadi. Dramaturg uchun san'at shon-shuhrat emas, burch edi. Mashhurlik emas, haqiqat muhim edi. Farzandning xotirasida u avliyosifat Darvesh, teatr tarixida esa hayotning eng oddiy haqiqatlaridan eng mukammal san'at yaratgan dramaturg sifatida qoladi. Chunki u ishongan haqiqat bitta edi, “Eng oddiy narsa – eng mukammal narsadir”. Shu sodda, ammo chuqur tamoyil uning ijodini belgilab bergan va bugun ham asarlarini jonli, ta'sirchan qilayotgan asosiy kuchdir.

**“Teatr san'ati” mutaxassisligi  
2-bosqich magistranti  
NOZIMA ULUG'OVA suhbatlashdi**



**BARNO RAVSHANOVA,**  
“Madaniyat va san’at  
muassasalari faoliyatini tashkil  
etish hamda boshqarish” ta’lim  
yo’nalishi 3-bosqich talabasi

## O‘ZBEK

Ursangiz tog‘ talqon bo‘lar,  
Vijdoningiz vulqon bo‘lar,  
Yurtga joni qalqon bo‘lar,  
O‘g‘lonlari bor o‘zbekning!

Qo‘rg‘on bo‘lib sarhadiga,  
Sodiq bo‘lib o‘z ahdiga,  
Tinchlik uchun el baxtiga,  
Posbonlari bor o‘zbekning!

Shu zaminning nonin yegan,  
Kurash tushib ko‘ksin kergan,  
Pahlavon er, Rustam degan,  
Dostonlari bor o‘zbekning!

Ajdodlari jasur o‘tgan,  
Avlodiga g‘urur tutgan,  
Temur nomin dilga bitgan,  
Turonlari bor o‘zbekning!

Misralari qalam yo‘ygan,  
Yurakda ishq, mehr tuygan,  
Navoiyga ixlos qo‘ygan,  
She‘rhonlari bor o‘zbekning!

Men – o‘zbekning o‘g‘liman der,  
Yov og‘ziga tishlatib yer,  
O‘ktam, jasur, bahodir, sher,  
Mardonlari bor o‘zbekning!

Haqqi uchun turmaydi tek,  
Boshi osmon, ko‘kragi kek,  
Erki qo‘lda, o‘ziga bek,  
Sultonlari bor o‘zbekning!

Davrada o‘z savlati bor,  
O‘z mehnati, davlati bor,  
Sharafli kasb, shavkati bor  
Ham shonlari bor o‘zbekning!



**BOBUR XAKIMOV,**  
“Dramatik teatr va kino aktyorligi”  
ta’lim yo’nalishi 1-bosqich talabasi

## GO‘ZAL QIZ

Loy ko‘chada yiqildim men oyoq toyib,  
Orqam bilan yomon tushdim loyga botib,  
Yonginamdan o‘tib ketdi, bir go‘zal qiz,  
Toshdan-toshga sakrayotgan kiyikdayin.

Bu go‘zalga yarashibdi shoyi atlas,  
Iforidan sarxush bo‘ldim men bo‘lib mast,  
Oyoq uchida yurar dilbar kiyikdayin,  
Oq tufliga yopishmagan loy bilan xas.

Meni maftun aylar buldi, shu go‘zal yor,  
Yuragimga nashtar sanchdi muzni uyib,  
Gangib qoldim o‘sha vaqti uni ko‘rib,  
Bilmay qoldim, balki uni qoldim sevib.

Yuzin to‘sib hilpiraydi kokillari,  
Uni mendan qizg‘anishar, ko‘rmasin deb,  
Xipcha belin quchib yurar uzun sochi,  
Boshqa birov bu belidan quchmasin deb.



**XUSNIDDIN G‘OFUROV,**  
“Kutubxona-axborot faoliyati”  
ta’lim yo’nalishi 1-bosqich talabasi



**NARGIZA SHODMONOVA,**  
“Madaniyat va san’at  
muassasalarini tashkil etish  
hamda boshqarish” ta’lim  
yo’nalishi 4-bosqich talabasi

## CHIN DO‘ST

Tirgak bo‘lib yurgan yo‘limda,  
Qadrim bilib asraganimsan.  
Soxta do‘stlar ko‘pdir, lek biroq,  
Minglar ichra tanlaganimsan.

Kunda bir bor holimni so‘rab,  
Qoqilganda kechmaganimsan.  
Omad kelsa, quchog‘ing ochib,  
Yolg‘on qasam ichmaganimsan.

Bari bor-u yo‘g‘imni bilib,  
Sirim arzon sotmaganimsan.  
Ko‘zim yoshlab, ko‘ksimni tilib,  
Ortimdan tosh otmaganimsan.

Shodligim u g‘amimga guvoh,  
Og‘ir damda yo‘qlaganimsan.  
Har on seni asrasin Alloh,  
Chin do‘st nomin oqlaganimsan.

## BIR BORA KO‘RSAM

Tunning zulmatida qiynalar qalbm,  
Sensizlik yondirar har kuni meni.  
Alamli onlar ham bo‘lsa-da yodim,  
Bir bora ko‘rsam-da, roziman seni.

Surating quchog‘lab o‘tkazar kunim,  
“Telba” deb atasin har kimsa meni.  
Mayli kulsinlar ustimdan har kun,  
Bir bora ko‘rsam-da, roziman seni.

Necha yil o‘tdi, necha zamonlar,  
Hijron o‘rtar hanuz, qiynaydi meni.  
Mayli qaytmasa-da eski zamonlar,  
Bir bora ko‘rsam-da, roziman seni.

Bilmayman hozirgi holatim o‘zim,  
Yana qumsamoqda bu qalbm seni.  
Qaniydi visoling ko‘rsaydi ko‘zim,  
Bir bora roziman ko‘rsaydim seni.



# RAQAMLI DAVRDA QADRIYATLAR O'ZGARISHI

Bugun an'anaviy qadriyatlar va onlayn platformalar orqali tarqaladigan universal raqamli tendensiyalar o'rtasida keskinlik mavjud. Mahalliy madaniy me'yorlar ko'proq global tendensiyalar bilan to'qnashmoqda, bu esa madaniy idrokning gibril modellarini shakllantirishga olib keladi. Ushbu muammo ijtimoiy tarmoqlarning kundalik hayotga keng kirib borishi sharoitida ayniqsa keskinlashmoqda. Raqamli texnologiyalar nafaqat aloqa usullarini o'zgartiradi, balki madaniy o'ziga xoslik haqidagi asosiy g'oyalarni faol ravishda qayta formatlaydi. Oila yoki milliy jamoalar kabi an'anaviy institutlar yangi haqiqatlarga moslashish muammosiga duch kelishmoqda. Qadriyatlarining bu qayta talqini globallashtirish axborot makonining ta'siri ostida qanday sodir bo'lishini aniq tahlil qilish kerak.

Darhaqiqat, improvizatsiya hayotning deyarli barcha sohalarini o'zlashtira boshladi. Xususan, bu axloqiy rivojlanishi bevosita vaqtning axborot tendensiyalariga bog'liq bo'lgan yoshlarga tegishli. Yoshlarning umuminsoniy qadriyati va axloqiy rivojlanishi tendensiyasi global ma'noda harakatlan-tiruvchi kuchga aylanib bormoqda. Yoshlarning ijtimoiy moslashuvi raqamlashtirish deb ataladigan o'ziga xos xususiyatlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, buning natijasida individual mavzu makonining aniq shakllanishi mavjud. Raqamli inqilob yoshlari vasiylik va cheklovlar begona bo'lgan yangi avloddir. Bu yerda yoshlarni jamoat va davlat hayotiga jalb qilishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqish zarurati tug'ildi, bu esa ularning oldida turgan vazifalarni hal qilish istagini kuchaytiradigan motivatsion mexanizmlarga asoslanadi.

Raqamlashtirishning afzalligi shundaki, ijtimoiy aloqa va identifikatsiyani targ'ib qiluvchi ijtimoiy tarmoqlar rivojlanadi. Yoshlar mashhurlikka intilib, o'zlarini ma'lum tendensiyalar bilan moslashtirishga harakat qilishadi, bu ko'p hollarda axloqiy va ma'naviy qadriyatlariga zid keladi. Raqamli dunyodagi xatti-harakatlar haqiqatdan dunyoqarashga mos kelmasa, nomuvofiqlik haqida gapirishimiz mumkin.

Raqamli texnologiyalar an'anaviy idrok va aloqa modellarini faol ravishda qayta qurmoqda, axborot va madaniy tarkib bilan o'zaro ta'sirning yangi shakllarini taklif qilmoqda. Bu bilim olish usullarini o'zgartirish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va madaniy naqshlarni tarqatishda namoyon bo'ladi. Raqamli aloqa oila ichidagi o'zaro ta'sirning tabiatini sezilarli darajada o'zgartiradi, o'zaro aloqani jismoniy makondan virtualga o'tkazadi. Oila a'zolari uzoq qarindoshlar bilan ko'proq bog'liqligini his qilishlari mumkin, lekin ayni paytda yaqin atrofdagilar bilan bevosita muloqot yetishmasligini boshdan kechirishadi. Bu oilaviy birlikning an'anaviy shakllarini saqlab qolish uchun yangi muammolarni keltirib chiqaradi.

Onlayn platformalar an'anaviy tushunchalardan tashqariga chiqadigan oilaviy munosabatlarning muqobil modellarini shakllantirishga faol hissa qo'shadi. Raqamli bo'shliqlar odamlarga o'z qarashlari bilan o'rtoqlashadigan jamoalarda qo'llab-quvvatlash va tushunishni topishga imkon beradi, bu nikoh va ota-ona rollari haqidagi shaxsiy tasavvurlarga ta'sir qilishi mumkin. Ushbu platformalar o'z-o'zini aniqlash va har doim ham umumiy qabul qilingan me'yorlarga mos kelmaydigan hayot yo'lini tanlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Ushbu o'zgarishlar kontekstida raqamli dunyoda ijtimoiylashuv ijtimoiy institutlarning inson hayotidagi o'rnining o'zgarishi, inson hayoti xavfsizligi muammosining kuchayishi bilan bog'liq. Shunday qilib, raqamli texnologiyalar nafaqat oila haqidagi tushunchani kengaytiradi, balki qadriyatlarini shakllantirish, xatti-harakatlarning oldini olish sohasida jamiyat uchun yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Bugungi kunda aynan yoshlar jamoatchilik kayfiyatining o'lchovini ifodalaydi va qadriyatlar asoslari dinamik ravishda o'zgarib turadigan, umuman jamiyatga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy hamjamiyat bo'lib ko'rinadi.

Virtual dunyoda yoshlarning raqamli o'zaro ta'sirining natijasi qadriyatlarining o'zgarishi hisoblanadi, chunki aynan yoshligida muayyan ustuvor yo'nalishlarni o'zlashtirishning tabiiy jarayoni sodir bo'ladi. Yoshlar turli xil salbiy va ijobiy tendensiyalar ta'siriga ko'proq moyil, chunki belgilangan qiymat tendensiyalari haqida hali ham aniq tasavvur mavjud emas. Hozirgi kunda yoshlar raqamli vositalarni sotib olish, muloqot qilish, film tomosha qilish, kitob o'qish, sayohat qilish va hatto ta'lim olish uchun faol foydalanadilar. Masofaviy o'qitish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Onlayn formatlarning ko'payishi yoshlar uchun aloqa va axborot iste'molining asosiy manbalaridan biriga aylanmoqda. Masalan, ma'lum bir nashrga reaksiya yoki yoqtirish tasdiqlash va qo'llab-quvvatlash o'lchovidir va shunga mos



**DILNOZA KARIMOVA,**  
"Madaniyat va san'at sohasi menejmenti"  
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

ravishda nafaqat obunachilar soni onlayn hamjamiyatning mashhurligini, balki sonini ham baholashga imkon beradi. Virtual makondagi o'yin-kulgi va haqiqatda hayotdan zavqlanish haqiqati ziddir.

Bugungi kunda yosh avlod o'rtasida sog'lom turmush tarziga talab ham ortib bormoqda. Virtual makonda hatto sog'lom ovqatlanish va sportga bag'ishlangan jamoalar va guruhlarning o'sishini kuzatish mumkin. Onlayn platformalar madaniy merosni avlodlar o'rtasida uzatishning an'anaviy mexanizmlarini tubdan o'zgartirmoqda. Ilgari, bu jarayon asosan to'g'ridan-to'g'ri aloqa va oilaviy marosimlar orqali amalga oshirilgan bo'lsa, hozirda axborot va madaniy naqshlarning muhim qismi raqamli kanallar orqali uzatiladi. Bu nafaqat shaklni, balki uzatilgan merosning mazmunini ham o'zgartiradi, uni yanada parchalab, global tendensiyalar ta'sirida qiladi. Shunday qilib, internet madaniy uzluksizlik jarayonida asosiy vositachiga aylanadi.

Raqamlashtirish hayotning deyarli barcha sohalariga ta'sir qilishiga qaramay, onlayn kutubxonalar, axborot saytlari, onlayn ta'lim va boshqalar kabi turli xil Internet-platformalarga kirish, shuningdek, ushbu platformalarning mazmuni va ularning dolzarb muammosi mavjud. Raqamlashtirish davrida yoshlarning qadriyat yo'nalishlari transformatsiya natijasida qarama-qarshi bo'lib bormoqda. Onlayn ta'lim tizimi takomillashtirish va qulayliklarni talab qiladi, chunki zamonaviy yoshlar tobora ongli ravishda tanlov qilmoqdalar, ya'ni masofaviy ta'lim foydasiga, bu ularga ma'lum bir davlatning geografik chegaralari va kunduzgi darslarga qatnashish zarurati bilan cheklanmaslikka imkon beradi.

## MILLIY QADRIYATLAR - MILLATNING BOYLIQI

**MADINA  
YUSUPBOYEVA,**  
"Kutubxona-axborot faoliyati"  
ta'lim yo'nalishi  
2-bosqich talabasi

Har bir xalqning yer yuzida o'z o'rnini va qiyofasiga ega bo'lishi uning moddiy boyliklari bilan emas, balki asrlar davomida shakllangan ma'naviy poydevori - milliy qadriyatlar bilan belgilanadi. Qadriyat tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra xalqning o'tmishi, buguni va kelajagini bog'lovchi oltin ko'prikdir.

U xalqning dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari, urf-odatlar, san'ati va ma'naviy tajribasini birlashtiradi. Milliy qadriyatlar orqali avlodlar o'z tarixidan saboq oladi, ichki intizom va ma'naviy kuchini mustahkamlaydi, jamiyatning ruhiy uyg'onishiga turki bo'ladi. Zero, ular nafaqat millatning madaniy merosi, balki uning eng oliy ruhiy boyligi, ichki dunyosi va milliy o'zligini saqlovchi bebaho manbadir. Shu bois, milliy qadriyatlarini qadrlash va rivojlantirish har bir inson va jamiyatning eng muhim burchi hisoblanadi. "Qadriyat o'zi nima? Nega u millat uchun shunchalik muhim?" Qadriyat - bu xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlar, axloqiy va ma'naviy me'yorlarini o'zida mujassam etgan boylikdir. Milliy qadriyatlar millatning ruhiy quvvati, madaniy merosi va ijtimoiy uyg'unligini belgilaydi.

O'zbek xalqining tarixiy qadriyatlarini qadrlaydigan an'analar va xalq tajribasini o'zida mujassam etadi. Eposlar, rivoyatlar va qadimiy she'riyat jasorat, halollik va sadoqat kabi fazilatlar namoyon qilib, bizga milliy ongning anglatuvchi kuchli namunalar bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, tarixiy yodgorliklar, san'at asarlari va me'morchilik

inshootlari millatimizning ruhiy poydevorini mustahkamlaydi. Har bir barkamol shaxs o'z tarixiy merosini o'rganish orqali nafaqat bilimga ega bo'ladi, balki ma'naviy va axloqiy rivojlanishning asosiy qadriyatlarini ham chuqurroq anglaydi. Shu tariqa, tarix va madaniyat millatning ruhiy boyligi sifatida avlodlardan avlodga yetib boradi.

Bugungi globallashtirish davrida yoshlar ko'pincha xorijiy madaniyat va qadriyatlar, ijtimoiy tarmoqlardagi qisqa kontentlar ta'sirida qolmoqda. Shu sababli, jamiyatimizning taraqqiyoti va milliy o'zligini saqlash bevosita yosh avlodga bog'liq. Zero, milliy qadriyatlarini singdirish ishini eng avvalo yoshlar tarbiyasidan boshlash zarur. Bu borada, insonning ma'naviy va axloqiy tayanchi, ilk tarbiya maskani sifatida, oilaning o'rnini beqiyosdir. Oila - insonning ilk tarbiya o'chog'i va ma'naviy poydevoridir. Bola hayotiga oid birinchi qadriyatlarini aynan oilada o'rganadi: mehr-oqibat, hurmat, samimiylik, halollik va sadoqat. Ana shu qadriyatlar orqali yosh avlod nafaqat milliy o'zligini anglatadi, balki jamiyatda to'g'ri va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanadi. Ota-onaning ta'lim-tarbiyasi,

oilaviy an'ana va urf-odatlar yoshlarning ruhiy va axloqiy dunyosini boyitadi. Masalan, milliy bayramlarni birga nishonlash, urf-odatlarini amalda davom ettirish yoki tarixiy hikoyalarni bolaga so'zlab berish orqali bola nafaqat bilim oladi, balki milliy qadriyatlarini qalbida his qiladi. Shuning uchun ham milliy qadriyatlarini avlodlarga yetkazishning eng samarali yo'li - oilani mustahkamlash va unda tarbiyaviy muhit yaratishdir.

Oila qanchalik mustahkam va qadriyatli bo'lsa, jamiyatning ruhiy poydevori shunchalik mustahkam bo'ladi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarini rivojlantirishda maktab va ta'lim muassasalari ham muhim rol o'ynaydi. Ta'lim orqali yosh avlod o'z milliy tarixi, adabiyoti va madaniyati bilan yaqindan tanishadi, qadriyatlarini hayotga tatbiq qilishni o'rganadi. Kutubxonalar, teatrlar va muzeylar esa milliy merosni saqlash va targ'ib qilishda beqiyos ahamiyatga ega. Masalan, o'zbek xalqining qadimiy eposlari va rivoyatlarini o'quv dasturiga kiritish, tarixiy yodgorliklarga ekskursionlar uyushtirish orqali bola nafaqat bilimga ega bo'ladi, balki milliy qadriyatlarini amalda his qiladi. Bundantashqari, zamonaviy texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarni ham qadriyatlarini targ'ib qilishda foydali yo'l sifatida ishlatish mumkin. Milliy hikoyalar, tarixiy ma'lumotlar va madaniy meros haqida qisqa, qiziqarli kontentlar yaratib, yoshlarni o'z qadriyatlarimizga qiziqitirish mumkin. Shu

tariqa, global madaniyatning ta'sirida qolgan yoshlar ham milliy o'zligini yo'qotmaydi, balki uni yanada boyitadi.

Milliy qadriyatlarini rivojlantirish va saqlash - bu faqat shaxsiy burch emas, balki jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti uchun muhim mas'uliyatdir. Har bir inson o'z hayotida milliy qadriyatlarini qadrlash va amalda qo'llash orqali nafaqat o'z ma'naviy dunyosini, balki butun jamiyatning ruhiy poydevorini mustahkamlaydi. Shuning uchun, milliy qadriyatlar - millatning eng oliy ruhiy boyligi va kelajak avlodga yetkaziladigan eng bebaho merosdir. Shuni aytish mumkinki, milliy qadriyatlar - har bir millatning eng oliy ruhiy boyligi va jamiyatning ma'naviy tayanchi hisoblanadi. Ular tarixiy meros, urf-odat, adabiyot va san'at orqali avlodlardan avlodga yetib boradi, yoshlarni ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllantiradi. Bugungi kunda milliy qadriyatlarini saqlash va rivojlantirish ayniqsa muhimdir. Shu bois, har bir inson va jamiyat milliy qadriyatlarini qadrlashi, oilada va ta'lim muassasalarida ularni singdirishi, shuningdek zamonaviy texnologiya va madaniyat vositalaridan unumli foydalanishi lozim. Natijada, millat o'z ruhiy boyligini saqlab qoladi, yosh avlod esa milliy o'zligini anglab, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadi.



## Sukunat ortidagi

# jasorat

Tun kirib kelganiga qaramay, sokin ko'ringan xiyobon odamlar bilan gavjum, turfa xil do'kon, kafelarda yoshlarning dam olishi-yu, ko'cha bo'ylab turnaqator tizilgan mashinalarning rang-barang chiroqlari o'zgacha taassurot qoldiradi. Ba'zan kunduzi shovqin ko'ringan ko'chalar kechasi sukunat qobig'iga o'raladi, ammo bu sukunatda niyatlar yashirinadi. Navbatchilikka chiqqan bosh inspektor Muhammadjon tungi ko'chalarni yengil va ohista qadamlar bilan ko'zdan kechirar ekan, chiroqlar nurida yaltirab ko'ringan kafe oldi yorqinliklari unga g'alati ko'rinsada, jiddiy o'yga tildi. Yerga qoplangan qalin qorda har bir qadam aks etib, keyin baribir yo'qolib ketadi...

Muhammadjon va uning hamkasbi Abdumannon xizmat mashinasida shahar tinchligi uchun tungi navbatchilikda. Soat kechasi o'n ikkiga bong urayotgan bo'l-sada, u tengqur soha fidoyilari xalq, millat tinchligi uchun jonini ham ayamaydilar, zotan er yigitlarning borligi kezi kelsa oilalarning inoq va mustahkam bo'lishiga, bolalarning bexavotir uxlashiga zamin yaratadi. Qahramonimiz bosh inspektor Muhammadjon bo'ylari baland, kelbatli bo'lib, ko'zlari chaqnab turadi. Qoshlari qalin, sochlari siyrak va kalta taralgan, bilaklari yo'g'on, mushti qattiqigidan qarshisida turgan raqibini bir urinishda yiqitadigan, ammo gap-so'zlaridan samimiy, dilxush oliyjanob inson ekanligi bilinib turadi. Dadasi boshliq uch avlodi harbiy o'tgan va hozirda esa, Yusuf ota podpolkovnik darajasida nafaqaga chiqqan. O'smirlik yillari "Afg'on urushi"da oyog'idan lat yeganligi uchun keyinchalik boldiridagi suyak o'rniga temir ulab qayta tikilgan ekan, shu sabab ayni chog'da oqsoqlanib yuradi.

Darhaqiqat, tinchlik o'z-o'zidan bo'l-madi, nechog'lik achainarli bo'lmasin bu osoyishta, farovon hayot son-sanoqsiz

odamlarning qoni evaziga paydo bo'ldi. Odatdagidek, inspektor Muhammadjon kunduz kunlari dam olar, kechasi davlat xavfsizlik xizmatida band bo'lar, hamkasbi bilan shaharning tinchligini ta'minlash uchun har bir ko'cha, mahallagacha kirib chiqishar edi.

Yangi yil yaqinlashgani sayin odamlar xiyobon, kafe, market, ochiq maydonda qad ko'targan archa atrofida sayrga chiqishardi. Bu orada hayot jonlanib yerto'ladagi tungi kompyuter klublari ham o'zgacha muhitda edi, xodimlar birin-ketin mashinani chetga olib virtual zonaga kirdilar. U yerda o'smir yigitlar bilan to'la, shovqin va musiqa ohangi birlashib ketgan edi. O'zlarini zamonaviy avlod vakillari hisoblayotgan bu yoshlar vaqtini ilmga, oilasiga emas, kasb-kor qilib, halol pul topish yo'liga ketkazmasdan, aynan qimor o'yinlariga sarflashayotgani achainarli. Nahotki, umrini dadasi, yaqinlari topayotgan mablag'ini o'tkinchi lazzat uchun sarflayotgani o'ylantirmasa?

Katta inspektor shular xususida xayol surar, ekan o'zining endigina ikki yoshga to'lgan o'g'lining kelajagini ham tasavvur qilib ko'rdi. Soat kechki o'n bir bo'lishiga qaramay, o'yin zonasi hali yopilmagan,

shovqin-suronga qorishilgan virtual olam bolalari ayni lahzada avj pallaga chiqdi. Liderlarning aksari yonida energetik, alkogol ichimliklarning borligi hayratlanarli. Qimor o'yini tugadi, birinchi jamoa yutqazib, ikkinchi jamoa g'oliblik nashidasini tuydi. Shu orada inspektor administrator bolaning qulog'idan ushlab tortganicha barcha kompyuterlarni o'chirishni buyurdi. Yerto'ladagi barcha xonalarga qulf solindi. Bolalar uylariga tumtaraqay jo'nadilar. Inspektor Abdumannon kulib,

– Bola bechorani qulog'ini uzib olay deding-da, qoyil senga do'stim! Ha o'smirlar...

– Nima?! Hali o'zing ham qariganing yo'q. Jiddiy ohangda javob berdi Muhammadjon, – bolalarga kelsak, ular ota-onasi oldida bo'lishi kerak, kim biladi o'zi ularga ota-onasi tarbiya beryaptimi? Bilib qo'y, hammamiz bir-birimizga g'animatimiz. Ota-onamiz bugun bor, erta yo'q! Katta inspektorning asabi buzilganicha, – ey gapni ko'paytirma, mashinaga chiq, mahalla ortidagi kafega ham kirib o'taylik, xizmatimiz hali davom etadi.

Sokin va yop-yorug' shahar ko'chalariga oppoq qorlar yog'a boshladi. Yomg'irdan keyingi loyqa izlar yuvildi, havo musaffo edi, ko'p qavatli uylarning derazalariga qarab, Muhammadjon tinch va osuda hayot uchun Yaratganga shukurlar aytdi. Rosti oilalarning urush-g'alvasiz, tinchoyishta yashayotgani, kichkintoylarning beg'am-betashvish, o'ynab-kulib yurishi-yu bobo-buvilarning sukunatga burkangan masjidida emin-erkin ibodat qilishlari, yoshlarimizning ilm yo'lida xotirjam safar qilayotganliklari – tinchlik evaziga berilgan baxt emasmi? Mijja qoqmay shaharning har bir burchagigacha tekshirishga urinayotgan ikkovlon Qorasaroy ko'chasidagi "Korzinka" supermarketiga yaqin joyda to'xtadilar, shu onda qarama-qarshi tarafdin qora mashina katta tezlikda supermarket orqasiga o'tib ketdi va shubhali ko'rinayotgan mashinadan ikki kimsaning tushgani kuzatdi. Muhammadjon ularning kimligini bilishga qiziqib, qo'llarini qirsillatganicha boshini tik tutib, shahdam qadamlar bilan ularning yoniga borayotgandi, ammo orqasidan inspektor kelayotganini bilib ustasi faranglar qochishga urindi, mashinaga tez o'tirdilar-u juftakni rostlab qoldilar. O'g'rilar fikricha, vaziyat biroz keskinlashdi-yu, lekin hali siri oshkor bo'lmasligi aniq.

Inspektor ertasi kuni navbatchilik qismiga ketishdan oldin doimgidek oilasi bilan choy ichishga o'tirdi. Yusuf ota gap orasida aytib qoldi, kissavurlar ko'paygani ham hozirgi zamonaviy kiberjinoatchilar, uddaburonlarning harakatlari odamlarning aksar qismiga ziyon keltirayotgani bo'ldi.

## IZZATILLO OLIMOV, "Kutubxona-axborot faoliyati" ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Kursida kitob varaqlab o'tirgan Muhammadjonning onasi yuzidan ko'zoynagini olib turmush o'rtog'iga:

– biroz bo'lsada boshqa mavzuda ham gaplashinglar. Shu bolam ishga ketdi deguncha yuragimni hovuchlab o'tiraman. Men o'g'lingizga aytgandim, yoshlik paytidanoq o'qituvchi yoki shifokorlik kasbini davom ettirsin deb, ko'nmadi. Yusuf ota mo'ylovini silagancha,

– Ha endi kech! Muhammadjon ota kasbini o'zi qiziqib o'rgandi. Xalq tinchligi yo'lida yashash bu... Bilasanmi? Hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. O'g'li qo'shimcha qildi.

– Bizga nasib etgani shu ekan, harakat qilsak baraka bo'ladi. Onajon hali hammasi yaxshi bo'ladi, duo qilinglar.

Birin-ketin kunlar haftalarga ulana boshladi. Jinoatchilar esa, o'z yo'lidan tap tortgani yo'q. Ketma-ket uch kun ko'rinmay qolgan o'g'rilar bugun tungi soat ikkida supermarketni o'marishga kirishdi. Ularga qarama-qarshi tarafdin inspektorlar kelib, yo'lga to'g'onoq bo'ldi. Vaziyat jiddiylashdi, Muhammadjon o'g'rilarni qo'lini orqaga qayirib kishan solmoqchi bo'ldi. Biroq ish chappasiga ketdi. Qimorboz o'g'rilarning kattasi kutilmaganda mashinadan tushib kelib, orqa tomondan pichoq bilan hujum qildi. Atrofga laxta-laxta qon sachradi. Hali taslim bo'lishni xohlamayotgan jinoiy to'da a'zolari qochmoqchi bo'ldilar. Abdumannon shovqin solib yordamchi kuchlarni chaqirdi-da, yig'i aralash bo'g'iq ovozd:

– Muhammad gapir, sen hali bizga keraksan do'stim! Chida! hech bo'lmasa ingrab tur...

Bosh inspektor qo'lini qon oqayotgan ko'kragiga mahkam bosib hiqichoq tutgan ko'yi past ovozd:

– Jinoatchilarni qo'lga ol, – dedi.

Lahza o'tmay, yordamchi kuchlar yetib keldi, kazzob, jinoatchilar ushlandi. Endi hayoti davomini turmada o'tkazadigan bo'ldilar.

Tong otdi. Qordan so'ng quyosh bulutlarni yorib o'tib iliq nurlarini socha boshladi. Shifoxona eshigi oldida barcha yaqinlar jamlangan. Xayriyatki, bosh inspektor sokin xonada yengil nafas ola boshladi. Uzun zalning burchagidagi o'rindiqda mulzam o'tirgan onaizorning ko'zlaridan milt-milt yosh oqmoqda.

– O'zingga shukur Yaratgan Allohim.

## Ko'rgazma


### NAVRO'ZNI ULUG'LASH – INSONNI ULUG'LASHDIR

Poytaxtimizning O'zbekiston Badiiy akademiyasining Markaziy ko'rgazmalar zalida Navro'z arafasida turli avlod san'atining turli yo'nalishlarida yaratilgan ijod namunalari tashkil topgan. Unda yurtimizdagi tasviriy san'atning ustalari va yosh ijodkorlarning yaratilgan ijodiy ishlarida mamlakatimiz tabiati manzaralari, zaminimiz ne'matlari, mevalari, gullari, tariximiz turmush tarzidan lavhalar, inson siymolari, yangilanish va uyg'unlik aks etgan.

Ekspozitsiyadan o'rin olgan "Bahor", "Quyoshli kun", "Ona", "Buvi", "Ikki ayol", "Sokinlik", "Uloq", "Ertaga ramazon", "So'qoqda oqshom", "Kichik chimyonga sayr", "An'anaviy choy marosimi", "Bo'stonliq tog'ida tong", "Qish tongi", "Cho'qqilar", "Kichik daryo", "Cho'ponlar qishlog'i" kabi ijod namunalari tomoshabinlarni befarq qoldirmaydi.

Namoyish etilayotgan ishlarda bahor tabiatining uyg'onishi, xalq urf-odatlari va farovonlik ramzlari, mualliflik qarashlar hamda dolzarb badiiy ilmiy izlanishlar bilan uyg'unlikni ko'ramiz.

## HASAN ABDUNAZAROV



### Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Bosh muharrir

Baxtiyor YAKUBOV



Tahrir hay'ati:

Hamdam ISMOILOV,  
Oybek DAVLATOV

Muharrir:

Dilnoza QURBONOVA

Sahifalovchi:

Abdug'ani SODIQOV

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,

Mirzo Ulug'bek tumani,  
Yalang'och mavzesi, 127 A uy.

Telefon: (71) 230-28-03.

(71) 230-28-13.

www.dsmi.uz;  
nashriyot@dsmi.uz

O'lchami – A3, hajmi 4 bosma taboq.

Gazeta 31.03.2026-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Gazeta elektron ko'rinisda havola etilmoqda